

ZAMONAVIY REZUME, CV VA MALUMOTLARINI YARATISH

Abdumajidova Muniraxon Habibullayevna

Farg‘ona tumani 2 -son kasb-hunar maktabi matematika fani o‘qituvchisi

Mamarasulova Mamlakatxon Abdusamatovna

Farg‘ona tumani 2 -son kasb-hunar maktabi biologiya fani o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada professional ta’lim muassasasi o‘qituvchilarini shaxsiy rezumesini shakllantirish, CV malumotlarini yartishlari haqida.

Tayanch atamalar: Kariera, rezume, CV malumotlari, Head hunter, Uzjobs, Linked in.

CV chet el universitetlariga hujjat topshirish va grantlar yutishning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Shu sababli uning nima ekanini bilish va to‘g‘ri yozish bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shularni hisobga olgan holda ushbu CV nima ekanligi, uni yozishda qanday ma’lumotlarni kiritish va CV hamda Resume farqi haqida ma’lumotlar berib o‘tamiz.

CV o‘zi nima?

CV - lotincha "curriculum vitae" iborasidan olingan bo‘lib "hayot yo‘li" degan ma’noni anglatadi. CV sizning ilmiy va professional tarixingizni, yutuqlaringizni va qilgan ishlaringizni aks ettiruvchi hujjat. Biz ushbu maqolamizda ko‘proq akademik tomoniga urg‘u berilgan CV haqida gaplashamiz.

CV odatda ikki yoki uch sahifadan iborat bo‘lib unga o‘qish darajangiz, ish tajribangiz, o‘qish davomidagi yutuqlar, mukofotlar, stipendiyalar yoki grantlar, kurs ishlari, tadqiqot loyihalaringiz va ilmiy nashrlaringiz kabi ma’lumotlar kiradi.

CV yozish tartibi va unga kiruvchi ma’lumotlar

CV ga nimalar yozish bu topshirayotgan joyingiz va yo‘nalishingizdan kelib chiqadi. Lekin, odatda, yaxshi akademik CV o‘zi ichiga quyidagi ma’lumotlarni berilgan tartibda oladi.

Bog‘lanish (kontakt) ma’lumotlari. Bu ma’lumotlar ichiga to‘liq ism-sharifingiz, email manzilingiz va telefon raqamingiz kiradi. To‘liq manzilingizni pochta indeksini qo‘shgan holda yozish ham maqsadga muvofiq.

O‘qish joylaringiz. Bu yerda o‘qish joylaringizni vaqt bo‘yicha teskari tartibda (eng yangisi birinchi) yozib chiqishingiz kerak. Ma’lumotlar ichiga o‘qish joyingiz to‘liq nomi, o‘qigan yillaringiz va mutaxassisligingizni yozishingiz kerak. Agar talabnomada yo‘q bo‘lsa maktab, litsey, kollej darjasini bu yerga yozilmaydi.

Ish tajribangiz. Ishlagan, amaliyot o‘tagan joylaringizni yuqoridagi kabi teskari tartibda joylashtirib chiqasiz. Ish joyingiz nomi to‘liq, ishlagan yillaringiz, u yerdagi lavoziminingiz va vazifalaringiz qanday bo‘lgani haqida qisqacha yozasiz.

Malaka va ko‘nikmalar **ingiz.** Malaka va ko‘nikmalarga o‘qitish tajribasi, kompyuter savodxonligi, ofis dasturlarida ishlay olish, grafik dizayn ko‘nikmalar, dasturlash bilimi va hokazolar misol bo‘lishi mumkin. Qaysi tillarni bilishingizni ham shu yerga kiritishingiz mumkin.

Mukofot va yutuqlaringiz. Bu yerda topshirayotgan sohangizga mos bo‘lgan eng muhim mukofot va yutuqlaringiz hamda ularni qachon, qay tarzda qo‘lga kiritganingiz haqida qisqacha ma’lumot berasiz.

Maqolalaringiz. Maqolalaringizni yozishda aynan topshirayotgan yo‘nalishingizga mos eng muhim 3-4 ta maqolangizni yozish kifoya qiladi. Ularning to‘liq nomi, qachon va qayerda nashr qilingani haqida ma’lumot berasiz.

Qo‘lga kiritgan grant va stipendiyalaringiz. O‘qish davomida qandaydir qo‘shimcha grant yoki stipendiyalarni qo‘lga kiritgan bo‘lsangiz ular haqida qisqacha ma’lumot hamda qachon qo‘lga kiritganingiz haqida yozasiz.

Jamoa va hamjamiyatlarga a’zoligingiz. Bu kabi jamoalarga volontyorlik tashkilotlari, yoshlar harakati yoki shu kabi jamoalar misol bo‘lishi mumkin.

Volontyorlik tajribangiz. Bu bo‘limda qaysi davr oralig‘ida qayerda, qay tarzda volontyorlik qilganingiz haqida yozishingiz kerak bo‘ladi.

Qiziqish va hobbilaringiz (ixtiyoriy). Ixtiyoriy tarzda nimalarga qiziqishingiz va hobbilaringiz haqida ham ma’lumot berishingiz mumkin. Sohaga bog‘liqlik joyi bo‘lishi tavsiya qilinadi.

CV chet el universitetlariga hujjat topshirish va grantlar yutishning ajralmas bir qismi hisoblanadi. Shu sababli uning nima ekanini bilish va to‘g‘ri yozish bu jarayonda hal qiluvchi ahamiyat kasb etishi mumkin. Shularni hisobga olgan holda bugungi postimizda CV nima ekanligi, uni yozishda qanday ma’lumotlarni kiritish va CV hamda Resume farqi haqida gaplashamiz.

Yuqoridagi bo‘limlardan 1 va 2-dan tashqari barchasi agar shu narsalar bor bo‘lsagina yoziladi.

CV va Rezyume farqlari CV va Rezyume bir qarashda bir-biriga o‘xshash bo‘ladi chunki ular ikkisi ham akademik va professional tarixingizni o‘z ichiga oladi.

Ularning asosiy farqi — CV ko‘proq akademik hujjat bo‘lib unda yuqoridagi ma’lumotlar haqida batafsil ma’lumotlar beriladi va odatda hajm jihatidan rezyumeden ko‘ra uzunroq bo‘ladi.

Rezyume esa, odatda, ishga kirish payti so‘raladigan hujjat bo‘lib, odatda bir sahifadan iborat bo‘ladi hamda professional tajriba ko‘nikmalariningizga ko‘proq urg‘u beradi. Rezyumeni o‘z CVingizdagi ma’lumotlarni qisqartirish va ixchamlashtirish orqali tayyorlash ham mumkin.

CV tayyorlash usullari:

Hozirgi kunda CV tayyorlashni ko‘plab usullari mavjud bo‘lib, ulardan eng asosiyları haqida gaplashib o‘tamiz.

Klassik, ya’ni Word yoki shu kabi dasturda qo‘lda tayyorlash. Bu usul eng klassik uslublardan bo‘lib, yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni jadval tartibida o‘zingiz joylashtirib chiqishingiz yoki Word va Google docs uchun tayyor CV shablonlaridan foydalanib tayyorlappingiz mumkin. Quyidagi havolada shu kabi tekin shablonlarni topishingiz mumkin:

<https://templates.office.com/en-us/resume-templates>

CV va Rezyume generatsiya qilib beruvchi saytlar orqali.

Bu saytlarda CV yoki Rezyumengizni yasash juda oson. Kerakli ma’lumotlarni kiritasiz va o‘zingizga yoqqan shablonni tanlaysiz. Ma’lumotlaringizni shu shablonga asosan joylashtirib beradi. Bitta muammo ularning ko‘plarida servis tekin emas. Tayyor CV yoki Rezyumengizni yuklab olish obuna sotib olishingiz kerak bo‘ladi. Quyida shu kabi saytlardan birining havolasi keltirilgan:

<https://novoresume.com/resume-templates>

LinkedIn yordamida.

LinkedIn profilingizdagagi ma’lumotlar to‘liq va to‘g‘ri to‘ldirilgan bo‘lsa, unda u yordamida osongina CV/Resume hosil qilishingiz mumkin. Ushbu havolada bu qanday qilinishi haqida ko‘rsatib o‘tilgan.

<https://www.cnbc.com/2021/01/14/how-to-create-your-resume-using-linkedin.html>

Europass tizimi orqali.

Hozirgi vaqtida eng ishonchli va qulay tizim Europass orqali CV yaratish hisoblanadi. U yerda CV yaratish butunlay tekin bo‘libgina qolmay, hozirda deyarli butun dunyo Europass orqali yaratilgan CVlarni qabul qilishni ma’qul deb hisoblaydi. Quyida ushbu tizim havolasini qoldiramiz.

<https://europa.eu/europass/en/create-europass-cv>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xaitov, L. A. (2021, December). *THE ISSUE OF SUSTENANCE AND PROFESSION IN HAKIM TERMIZI'S WORK "BAYANUL KASB"* ("DESCRIPTION OF THE PROFESSION"). In *International Scientific and Current Research Conferences* (pp. 67-69).
2. Хаитов, Л. А. (2014). Значение эстетического воспитания в развитии личности студента педагогического вуза. *Наука. Мысль: электронный периодический журнал*, (10), 40-44.
3. Azamatovich, X. L. (2021). *The Concept of Heart In The Treatises Of Hakim Termizi*. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 63-67.
4. кизи Гиёсова, В. А. (2022). *TOTEMISTICHESKOE ПРОИСХОЖДЕНИЕ СКАЗОК О ЖИВОТНЫХ. THE ROLE OF SCIENCE AND INNOVATION IN THE MODERN WORLD*, 1(1), 133-139.
5. kizi Giyosova, V. A., & Sabirov, N. K. *FAIRY TALES OF THE RUSSIAN AND UZBEK PEOPLES (COMPARATIVE APPROACH)*.
6. Авазовна, Г. В. (2022). *THE SOCIOLINGUISTIC NATURE OF THE ADDRESS*. *EPRA International Journal of Research and Development (IJRD)*, 7(7), 81-86.
7. Satriddinovna, M. M. (2021). *Peculiarities of Muqimi's Work and Its Significance*. *CENTRAL ASIAN JOURNAL OF LITERATURE, PHILOSOPHY AND CULTURE*, 2(3), 75-77.
8. Baxodirovna, K. M. (2022). *CHOL VA DENGIZ (ERNEST XEMINGUEY)*. *BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI*, 704-707.